

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI BYUDJETLARARO MUNOSABATLARIDA MAHALLIY BYUDJETLAR O`RNI

Djalilov Kamoliddin Zairovich

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI

BANK-MOLIYA AKADEMIYASI

Annotatsiya. Ushbu maqola O‘zbekiston Respublikasi byudjet jarayonining mavjud holati tahlil qilinib, uning samaradorligini oshirish va takomillashtirish yo‘llari ilmiy-amaliy jihatdan o‘rganildi. Byudjet jarayonining har bir bosqichida moliyaviy intizomni mustahkamlash, byudjet tashkilotlari rahbarlarining mas‘uliyatini oshirish, byudjet mablag‘larini samarali taqsimlash va monitoring qilish tizimini yaxshilash bo‘yicha takliflar ishlab chiqildi. Shuningdek, byudjet jarayonini soddalashtirish va uni raqamlashtirish orqali iqtisodiy islohotlarga xizmat qiladigan samarali moliyaviy boshqaruv mexanizmlarini yaratish yo‘llari ko‘rsatildi.

Kalit so'zlar: moliyaviy nazorat, transparensiya, inspeksiya, davlat byudjeti, monitoring, subsidiya, soliq, bojxona, makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar, moliyaviy xavfsizlik, innovatsiya, inflyasiyani.

Abstract. This article analyzes the issues of coordination of activities of financial control bodies. The main tasks of financial control bodies and the nature, importance and necessity of their activities are presented in the article. It also compares coordination issues, legal and academic issues, including the role of financial regulatory bodies in influencing and ensuring financial security. Article, financial aims to compare the activities of control bodies and important issues related to them. The article analyzes the most important concepts in the implementation of financial control bodies, the defined stages of their activity, the problems encountered in the process of coordination, as well as scientific and social problems in the coordination of the activities of financial control bodies.

Key words: financial control, transparency, inspection, state budget, monitoring, subsidy, tax, customs, macroeconomic indicators, financial security, innovation, inflation.

O‘zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksiga muvofiq, byudjet tizimi ko‘p darajali tuzilishga ega bo‘lib, u davlat byudjeti (respublika byudjeti) hamda mahalliy byudjetlardan iborat. Mahalliy byudjetlar deganda Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri, tumanlar va shaharlar byudjetlari tushuniladi. Byudjet kodeksining 7-moddasida aniq qayd etilishicha, bu byudjetlar mustaqil ravishda shakllantiriladi va ular tegishli darajadagi mahalliy davlat hokimiyati organlari tasarrufida bo‘ladi. Mazkur holat ularning moliyaviy mustaqilligini qonuniy jihatdan ta‘minlashga qaratilgan bo‘lib, mahalliy darajadagi ijtimoiy, iqtisodiy va infratuzilmaviy ehtiyojlarni bevosita manzilli va samarali hal qilish imkonini beradi.

Mahalliy byudjetlarning huquqiy maqomi ularning o‘z oldiga moliyaviy majburiyatlar olish, daromadlar manbalarini rejalashtirish, tegishli xarajatlarni mustaqil taqsimlash va byudjet ijrosi ustidan nazorat o‘rnatish kabi huquqlarga ega ekanligi bilan mustahkamlanadi. Shu bilan birga, mahalliy byudjetlarning asosiy maqsadi — aholining hayot sifatini oshirishga qaratilgan ijtimoiy dasturlarni moliyalashtirish, jamoat xizmatlarini ko‘rsatish va mahalliy infratuzilmalarni rivojlantirishga xizmat qiladigan moliyaviy vositalarni samarali boshqarishdan iboratdir.

5-jadval.

2020–2024-yillarda O‘zbekiston Respublikasida tartibga soluvchi va maqsadli transfertlar miqdori

Yil	Tartibga soluvchi transfertlar (trln so‘m)	Maqsadli transfertlar (trln so‘m)	Izoh
2020	14,7	15,9	Tartibga soluvchi transfertlar mahalliy byudjetlar taqchilligini qoplash uchun ajratildi. Maqsadli transfertlar esa ijtimoiy sohalarni moliyalashtirishga yo‘naltirildi.

2021	16,0	17,5	Tartibga soluvchi transfertlar hajmi oshirildi. Maqsadli transfertlar orqali ijtimoiy dasturlarni qo‘llab-quvvatlash davom ettirildi.
2022	18,2	19,8	Mahalliy byudjetlarning mustaqilligini oshirish maqsadida transfertlar hajmi ko‘paytirildi.
2023	20,5	22,0	Tartibga soluvchi transfertlar orqali hududlar o‘rtasidagi moliyaviy tengsizliklar kamaytirildi.
2024	22,8	24,5	Transfertlar hajmi iqtisodiy o‘sish va ijtimoiy sohalarga bo‘lgan ehtiyojlarni qondirish uchun oshirildi.

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma’lumotlari.

Huquqiy jihatdan, har bir mahalliy byudjet o‘zining alohida daromad bazasiga ega bo‘lishi kerak. Bu daromad bazasini shakllantirishda umumdavlat soliqlari va yig‘imlaridan ajratmalar, bevosita mahalliy soliqlar, mol-mulk daromadlari, ijara va xizmat ko‘rsatishdan tushgan mablag‘lar asosiy manba sifatida xizmat qiladi. Byudjet kodeksi ushbu jarayonni huquqiy jihatdan tartibga solgan holda, byudjetlararo moliyaviy munosabatlarni ham belgilab bergan. Ya’ni, yuqori byudjetdan quyi darajadagi byudjetlarga tartibga soluvchi va maqsadli transfertlar ajratilishi tartibi ochiq-oydin ko‘rsatilgan.

“Mahalliy byudjetlarning huquqiy maqomi faqat moliyaviy o‘ziga xoslik bilan chegaralanmaydi. Ular o‘z vakolatlariga muvofiq ravishda, byudjet loyihasini ishlab chiqish, tasdiqlash, ijro etish, hisobot tayyorlash va monitoring kabi funksiyalarni mustaqil tarzda amalga oshiradi. Shu bilan birga, bu jarayonlar tegishli mahalliy kengashlar

tomonidan muvofiqlashtiriladi va qonunchilikda belgilangan tartibda O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Hisob palatasi tomonidan nazorat qilinadi.

Mahalliy byudjetlar O‘zbekistonning byudjet tizimidagi mustaqil va muhim institutsional bo‘g‘in bo‘lib, ularning huquqiy maqomi nafaqat moliyaviy boshqaruv samaradorligini oshirishga, balki hududiy ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga sezilarli darajada hissa qo‘shishga qaratilgan. Ularning huquqiy asoslari Byudjet kodeksi orqali mustahkamlangan bo‘lib, bu esa ularning mustaqil faoliyat yuritishini kafolatlaydi.” (Alimov, R. (2022).

O‘zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksida mahalliy byudjetlarning shakllanishi va moliyaviy mustaqilligini ta‘minlovchi asosiy tamoyillar aniq belgilab berilgan. Byudjet kodeksining 69-moddasida qayd etilganidek, har bir mahalliy byudjet o‘z daromad manbalariga ega bo‘lishi, xarajatlar va daromadlar o‘rtasida muvozanat (balans) saqlanishi zarur. Bu tamoyil moliyaviy barqarorlikning asosiy ko‘rsatkichlaridan biri bo‘lib, har bir hududga o‘z ehtiyojlarini moliyaviy jihatdan mustaqil qondirish imkonini beradi.

Mahalliy byudjetlar quyidagi asosiy manbalar hisobiga shakllantiriladi:

➤ Mahalliy soliqlar va yig‘imlar – bu daromad manbasi mahalliy moliyaviy mustaqillikning asosi hisoblanadi. Ular orasida yer solig‘i, mol-mulk solig‘i, savdo yig‘imlari, reklama uchun yig‘imlar va boshqa hududiy soliqlar mavjud. Mazkur soliqlar mahalliy hokimiyat organlari tomonidan belgilangan tartibda yig‘iladi va hududda ijtimoiy, kommunal va infratuzilma ehtiyojlarini qondirishga yo‘naltiriladi.

➤ Respublika byudjetidan ajratiladigan transfertlar – bu manbalar ikki turda bo‘ladi:

➤ Davlat mulkini ijaraga berishdan tushadigan daromadlar – bu turdagi daromadlar davlat tasarrufidagi yer uchastkalari, binolar, inshootlar, kommunal ob‘ektlar va boshqa aktivlarning ijarasi orqali shakllanadi. Mazkur manbalar, ayniqsa yirik shaharlar va sanoat zonalari uchun muhim hisoblanadi.

➤ Boshqa qonuniy daromad manbalari – bu yerda grantlar, subsidiyalar, jarimalar, lizing to‘lovlari, lotereya va xayriya mablag‘lari, moliyaviy xizmatlardan

yaxshilanadi, yangi asfalt yotqiziladi, piyodalar yo‘laklari va yoritish chiroqlari o‘rnatiladi. Mahalliy byudjet xarajatlarining yana bir muhim yo‘nalishi – ijtimoiy himoyadir. Kam ta‘minlangan oilalar, nogironlar, yolg‘iz keksalar, nafaqaxo‘rlar va boshqa ijtimoiy zaif qatlamlarga yordam ko‘rsatish, subsidiyalar ajratish, ijtimoiy xizmatlar bilan ta‘minlash mahalliy moliyaviy siyosatning ustuvor vazifasidir. Bundan tashqari, mahalliy infratuzilmani rivojlantirish doirasida hududiy transport, energetika, suv va kanalizatsiya tizimlari, elektr tarmoqlari, savdo va bozor infratuzilmasining qurilishi va rekonstruksiya ishlari amalga oshiriladi.

Ushbu xarajatlar har yili mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan tasdiqlanadigan byudjet dasturlari asosida amalga oshiriladi. Xarajatlarning ustuvorlik tartibini belgilashda aholining fikrlari, davlat va hududiy rivojlanish dasturlari, mavjud muammolar tahlili asosiy mezon sifatida olinadi. Bunda resurslar taqsimotida samaradorlik, ijtimoiy natijadorlik va moliyaviy intizomga e‘tibor qaratiladi. Shu bilan birga, so‘nggi yillarda mahalliy byudjet xarajatlarini raqamli shaklda tahlil qilish, audit qilish va monitoring mexanizmlarining joriy etilishi moliyaviy nazorat tizimlarini takomillashtirishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, "Ochiq byudjet" platformasi orqali fuqarolar tomonidan loyihalarni tanlash va ovoz berish orqali byudjet mablag‘lari taqsimotiga ta‘sir ko‘rsatish imkoniyati kengaydi.

Umuman olganda, mahalliy byudjet xarajatlarining tuzilmasi va ustuvorliklari – hududiy barqarorlik, aholi farovonligi, infratuzilmaning modernizatsiyasi va davlat xizmatlarining sifatini oshirishga yo‘naltirilgan. Bu esa Byudjet kodeksi doirasida mahalliy moliyaviy siyosatni shakllantirishda ijtimoiy adolat, shaffoflik va ishtirokchilik tamoyillarini amalda ro‘yobga chiqarishni taqozo etadi.

O‘zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksiga ko‘ra, mahalliy byudjetlarning boshqaruvi davlat hokimiyatining mahalliy organlari orqali amalga oshiriladi. Bunda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, viloyat, Toshkent shahar, tuman va shahar kengashlari (xalq deputatlari kengashlari) mahalliy byudjetlar siyosatini shakllantirish, byudjet loyihalarini muhokama qilish va tasdiqlashda muhim rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, tegishli hokimliklar byudjet ijrosining bevosita ijrochisi hisoblanadi.

Byudjet kodeksining 97-moddasiga binoan, har bir darajadagi mahalliy byudjet loyihasi moliya organlari tomonidan ishlab chiqilib, tegishli kengashlarga taqdim etiladi. Ushbu kengashlar byudjetni ko‘rib chiqib, tasdiqlaydi va ijrosini nazorat qiladi.

Mahalliy byudjet ijrosi esa asosan tegishli mahalliy moliya bo‘limlari tomonidan amalga oshiriladi. Ular kirim va chiqimlar harakatini monitoring qilish, byudjet mablag‘larini maqsadli yo‘naltirish, tasdiqlangan limitlar doirasida xarajatlarni boshqarish kabi vazifalarni bajaradi. Mahalliy hokimliklar byudjet mablag‘larining ijrosini amalga oshirar ekan, ular qonuniylik, samaradorlik va shaffoflik tamoyillariga amal qilishlari shart. Bundan tashqari, bugungi kunda ijro jarayonlariga axborot texnologiyalari keng joriy qilinmoqda. “Byudjet axborot tizimi” va “Ochiq byudjet” platformasi orqali barcha darajadagi byudjet ijrosi real vaqt rejimida kuzatilmoqda. Bu esa boshqaruv samaradorligini oshirish, resurslardan oqilona foydalanishni ta’minlash va moliyaviy intizomni mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Mahalliy byudjetlarning shaffofligi va qonuniyligi ustidan nazorat qilish tizimi O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining muhim tarkibiy qismidir. Nazorat uchta asosiy yo‘nalish orqali amalga oshiriladi: ichki nazorat, tashqi audit va jamoatchilik nazorati.

Ichki nazorat bevosita mahalliy moliya organlari tomonidan amalga oshiriladi. Ular byudjet ijrosining har bir bosqichini — rejalashtirishdan tortib sarflashgacha bo‘lgan jarayonni tahlil qiladi. Ichki nazorat tizimi budjet mablag‘larining maqsadga muvofiq va qonuniy sarflanishini, xarajatlarning limitlarga mosligini, moliyaviy hisobotlarning to‘g‘riligini tekshiradi. Moliya organlari har chorakda va yil yakunida hisobotlar tayyorlaydi va mahalliy kengashlarga taqdim etadi.

Tashqi audit esa O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasi tomonidan olib boriladi. Byudjet kodeksining 26-moddasiga binoan, Hisob palatasi mahalliy byudjetlarning ijrosini tekshiradi, moliyaviy qonunbuzarliklar va samarasizlik holatlarini aniqlaydi hamda hisobotlarni Oliy Majlisga taqdim etadi. Ushbu audit faoliyati budjet mablag‘larining to‘g‘ri boshqarilishini ta’minlash, korrupsiya va moliyaviy suiiste’mollarning oldini olishda muhim vosita hisoblanadi.

Jamoatchilik nazorati esa oxirgi yillarda alohida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Fuqarolar, nodavlat notijorat tashkilotlari va ommaviy axborot vositalari tomonidan mahalliy byudjet mablag‘larining taqsimoti, ulardan foydalanish va ijrosi ustidan nazorat kuchaymoqda. Ayniqsa, “Ochiq byudjet” portali orqali fuqarolar o‘z hududlarida qanday loyihalar moliyalashtirilayotganini kuzatishi, o‘z takliflarini berishi va ovoz berishda ishtirok etishi mumkin. Bu esa fuqarolik jamiyatining byudjet jarayonidagi ishtirokini kengaytiradi, davlat organlarini esa yanada ochiq va hisobdor bo‘lishga undaydi.

Umuman olganda, mahalliy byudjetlar ustidan nazorat qilish tizimi — qonuniylik, samaradorlik va shaffoflikni ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, u ichki va tashqi nazoratning tizimli uyg‘unligi, fuqarolik ishtiroki va axborot texnologiyalarining keng qo‘llanilishi orqali yanada takomillashib bormoqda.

Mahalliy byudjetlarning moliyaviy mustaqilligi O‘zbekiston Respublikasining moliyaviy boshqaruv tizimida barqarorlik va samaradorlikni ta’minlovchi asosiy tamoyillardan biri sifatida qaraladi. Byudjet kodeksining 90-moddasiga muvofiq, mahalliy byudjetlar o‘z daromad manbalariga ega bo‘lish, xarajatlarni mustaqil rejalashtirish va qonuniy asosda qarz olish huquqiga egadirlar. Bu huquq ularga hududiy ehtiyojlardan kelib chiqib, moliyaviy siyosat yuritish, resurslarni joylarda eng dolzarb yo‘nalishlarga yo‘naltirish imkonini beradi. Jumladan, yer va mol-mulk solig‘i, transport solig‘i, mahalliy yig‘imlar kabi daromadlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri mahalliy byudjetlarga yo‘naltiriladi va ular ushbu resurslar ustidan mustaqil tasarruf qilish huquqiga ega. Mahalliy kengashlar xarajat ustuvorliklarini aniqlashda mustaqil qarorlar qabul qilishi, shu asosda ijtimoiy soha, infratuzilma, atrof-muhit va boshqa muhim sohalarda loyihalarni moliyalashtirishi mumkin. Shuningdek, byudjet balansini saqlab qolish maqsadida mahalliy hokimliklarga zarurat tug‘ilganda, qonunchilikda belgilangan tartibda ichki qarz olish huquqi berilgan. Bu holat hududiy loyihalarni o‘z vaqtida amalga oshirishda muhim moliyaviy manba bo‘lib xizmat qiladi. Shunday qilib, moliyaviy mustaqillik nafaqat mahalliy byudjetlar salohiyatini oshiradi, balki ularning ijro samaradorligini va fuqarolar oldidagi mas’uliyatini ham kuchaytiradi.

Dunyo mamlakatlari tajribasi shuni ko'rsatadiki, mahalliy byudjetlarning moliyaviy mustaqilligi davlat moliya tizimining barqarorligi va samaradorligini oshiruvchi muhim omildir. Masalan, AQSHda mahalliy byudjetlar federativ tizimga asoslangan bo'lib, shtatlar va mahalliy hokimiyatlar o'z byudjetlarini mustaqil shakllantiradi, soliqlarni yig'adi va o'z ehtiyojlariga qarab xarajat qiladi. Bu ularga mahalliy muammolarga tezkor va aniq javob qaytarish imkonini beradi. Germaniyada esa mahalliy byudjetlar federal byudjet bilan muvofiqlashtirilgan bo'lib, o'z mustaqil soliqqa tortish tizimiga ega. Federal davlatlar soliq daromadlarini shaffof va adolatli taqsimlash mexanizmlarini ishlab chiqqan bo'lib, bu tizim mahalliy moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Gruziya tajribasida PEFA indikatorlariga asoslangan baholash tizimi joriy etilgan bo'lib, bu orqali mahalliy byudjetlarning shaffofligi, samaradorligi va hisobdorligi baholanadi. Xususan, Gruziyada ishtirokchilik byudjetlashtirish amaliyoti keng joriy etilgan bo'lib, fuqarolar mahalliy moliyaviy qarorlar qabul qilishda bevosita ishtirok etadi. Ushbu yondashuv orqali aholining davlat moliyasiga bo'lgan ishonchi oshadi, jamoatchilik nazorati kuchayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- ❖ U.Mehmonov, Z.X.Karimova, A.S.Tursunov Byudjet tizimi Toshkent 2017
- ❖ G'aybullayev O., O'roqov U. O'zbekiston Respublikasida byudjet tizimi va jarayoni. O'quv qo'llanma. – Toshkent 2016 y
- ❖ Nurmuxamedova B.I. Davlat byudjeti. Darslik. – T. Iqtisod-Moliya 2018 y.
- ❖ J.R.Zaynalov, B.Sh.Xusanov S.S.Aliyeva, Sh.M.Latipova Davlat byudjeti o'quv qo'llanma T."Iqtisod-Moliya" 2021y
- ❖ A.Ismoilov Natijaga yo'naltirilgan byudjetlashtirish. Toshkent-2019 y.
- ❖ M.Ostonaqulov Byudjet hisobi darslik. Toshkent "Talqin"-2008 y.
- ❖ S.U. Mehmonov, D.Y. Ubaydullaev Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi darslik Toshkent 2013 y
- ❖ T.Malikov O.Olimjonov Moliya darslik T. Iqtisod-moliya 2019 y.
- ❖ B.I. Nurmuxammedova, Sh.K. Xamdammov Davlat moliyasi darslik T. Iqtisod-moliya 2020 y